

FAHM-FAROSAT SOG‘LOM TURMUSH TARZINING MUHIM SHARTI

Razzoqov Qosimbek Quvanovich

Jizzax politexnika instituti

“Ijtimoiy fanlar” kafedrası

dotsenti v.b (PhD)

Razzoqova Surayyo Muzaffarovna

202-25 Qurilish muhandisligi talabasi

O‘zbekiston Respublikasi, Jizzax shahar

Annotatsiya: Ushbu maqolada fahm-farosat tushunchasining mazmuni mohiyati va unga oid mutafakkirlar tomonidan bildirilgan qarashlar xususida gap boradi. Shuningdek mazkur tushunchalarning qisqacha tarixi ularning mintaqa miqyosidagi ahamiyati borasida ham to‘xtalib o‘tilgan. Qolaversa yangi O‘zbekiston yoshlari tarbiyasida unung ahamiyatli tomonlarini yoritish kabilarni qamrab oladi.

Kalit so‘zlar: axloq, tarbiya, odob, xulq, ma’naviyat, madaniyat va shu kabilar.

WISDOM IS AN IMPORTANT CONDITION FOR A HEALTHY LIFESTYLE.

Razzakov Kasymbek Kuvanovich

Jizzakh Polytechnic Institute

Department of "Social Sciences"

Associate Professor (PhD)

Razzokova Surayyo Muzaffarovna

202-25 Civil Engineering student

Republic of Uzbekistan, Jizzakh city

Abstract: This article discusses the essence of the concept of understanding and the views expressed by thinkers regarding it. Also, a brief history of these concepts is given regarding their significance on a regional scale. Moreover, it

covers issues such as highlighting its important aspects in the upbringing of the youth of the new Uzbekistan.

Keywords: morality, upbringing, manners, behavior, spirituality, culture, etc.

Tarixga nazar solsak, insoniyat bilan bog‘liq ijtimoiy-ma’naviy tarixiy taraqqiyotida adolat, to‘g‘rilik, tenglik har qanday jamiyatlar mafkurasida alohida o‘rin tutib kelgan.

Jamiyatning ma’naviy va axloqiy sog‘lomligi bebaho boylik hisoblanadi. Negaki sog‘lom muhit ma’nan yetuk, axloqan yuksak shaxslarni yuzaga keltiradi. Shuning uchun allomalar insonga xos go‘zal axloqiy fazilatlar, ya’ni har bir inson o‘zi yashayotgan muhitdagi turmush tarziga, oilaga, qo‘ni-qo‘shnichilik va yorubirodarlikka, jamoat joylaridagi munosabatlariga, boshqalar bilan bo‘ladigan aloqasi, yurish-turishi, muomalasi, kiyinishi, did-farosati va boshqa shu kabi fazilatlarni tarbiyalash xususida ko‘plab o‘git va nasihatlar qoldirib ketishgan. Bu borada ma’naviyatimizning buyuk va bebaho merosi Hadisi shariflarda ham “Qo‘shningizga yaxshilik qiling - tinch bo‘lasiz”, “O‘zingiz sevgan narsani odamlarga ham ravo ko‘ring - salomat yurasiz”, “Inson xatoni ko‘proq o‘z tili bilan sodir qiladi”, “Tashqi ko‘rinishlaringiz yoki molu-dunyolaringizga emas, balki dillaringizga va ishlaringizga baho beriladi” kabi axloqiy fikrlar ko‘plab uchraydi.

Ushbu hikmatlarda umuminsoniy qadriyatlar, kishilarning yurish-turishi, atrofdagilar bilan munosabatining axloqiy asoslari, inson go‘zalligining umumiy mezonlari to‘g‘risida olam-olam ma’noni uqib va o‘zlashtirib olish mumkin. Kim qaysi lavozimda va vazifada ishlashidan qat’iy nazar, o‘zining serzavq, sermazmun mehnati, yaxshi kayfiyati, boshqalarga yordami va saxiyligi, kamtarinligi, madaniyligi, qadr-qimmati va xulq-odobi bilan, hamjihat ish yuritishi va odamlarga foyda keltirishi bilan o‘z hayotini go‘zallashtirib boradi.

Sharq xalqlari tafakkurini asrlar davomida nurafshon etib, ma’naviyatimiz, ma’rifatimizga chuqur ta’sir o‘tkazib, insonning jamiyatda keng va atroflicha faoliyat olib borishida bevosita fahm-farosat tushunchasi muhim rol o‘ynaydi. Xususan, shaxs ma’naviyati uning axloqiy sifatlari, odobi, Vatan va xalqqa

sadoqati, mehnatga, insonlarga bo'lgan munosabati, aql-zakovati, fahm-farosati va qadr-qimmatini bilan o'lchanadi. Bu kabi ma'naviyat axloqiy qadriyatlar, xususan umuminsoniy va milliy qadriyatlar ta'sirida o'zgarib, rivojlanib, kamol topib boradi. O'z navbatida, yuksak ma'naviyat shaxsning axloqiy jihatdan kamol topishida muhim rol o'ynaydi. Shuning uchun bugun yoshlarimiz ma'naviyatini yuksaltirish, har bir voqea-hodisaga teran tafakkur va tahliliy idrok bilan yondoshishga o'rgatish muhim ahamiyat kasb etadi. Shu o'rinda insonning voqelikni asliga muvofiq idrok etish, unga to'g'ri munosabat hosil qilish va voqelik talabiga muvofiq tadbir ishlab chiqib, uni hayotga tatbiq eta bilish fazilati bo'lgan fahm va farosatning ham o'z o'ri bor.

Ko'p hollarda ushbu tushunchalar, fahm va farosat birga ishlatiladi ammo ularning har biri o'ziga xos xususiyatga ega bo'lib fahm - tushunish, anglash, idrok qilish qobiliyati bo'lsa, farosat - to'g'ri fahmlashni bildiradi. Bu yerda anglash va tushunish sodir bo'lsa, u fahmni keltirib chiqaradi. Biz to'g'ri anglagan odamni farosatli, noto'g'ri anglaganni esa farosatsiz deymiz. Fahmsiz so'zi esa o'sha anglashni ham tuzuk eplay olmay, chala tushunadigan odamga nisbatan ishlatiladi.

Demak fahm-farosatli inson barcha masalani, muhokama va munozarani tezda va to'g'ri tushuna oladigan, uning ma'nosini anglay oladigan, so'zlovchining maqsadi, aytilgan fikrlarning chinligini tezda payqay oladigan bo'ladi. Zero buyuk mutafakkir Forobiyning fikricha oqil inson o'zida 12 xislatni jamlashtirgan bo'lishi lozim deb aytgani bejiz emas. Ular orasida o'tkir farosat, o'z fikrini aniq va ravshan bayon etish, nafsni tiya olish, kamtarlik, bir so'zlik, qat'iyatlilik va jasurlikni ham aytib o'tadi. Mutafakkir hukumat rahbarida mavjud bo'lishi kerak bo'lgan fazilatlar qatoriga yana xushbichimlik, fahm-farosatlilik, o'tkir xotira, idroklilik, so'zga chechanlik, ilmga chanqoqlik, xar bir ishda me'yorni saqlay bilish, halollikka muhabbat va yolg'onga nafrat, olijanoblik, boylikka nafrat, adolatparvarlik, qat'iylikni ko'rsatib o'tadi.¹

Buyuk mutafakkirlaridan biri Husayin Voiz Koshifiy ham bu haqida shunday takidlaydi: "Farosat so'zining lug'aviy ma'nosi biror narsaning yaxshi va yomon

¹ Farobiy. Fozil odamlar shahri. T., Xalq merosi. 1993. 186–187 betlar.

xususiyatini ko‘rib aniqlashdir. Istilohiy ma’nosi esa umumiy bo‘lib, jonning suratdagi zohir holini mushohada qilib, uning ichki mohiyatidan ogoh bo‘lishdir. Farosat hukumat ishining ulug‘ shartidir”.²

Bundan har bir shaxs narsalarning mohiyatini chuqur bilish bilan birgalikda o‘ziga xos aql-farosatga ham ega bo‘lishi kerakligi haqidagi xulosani anglash mumkin. Shuningdek insonga xos bo‘lgan xususiyatlarga axloqiy va estetik jihatdan yondoshadigan bo‘lsak, uni avvalo - aql, farosat va didning, tafakkur, tasavvur va xotiraning mavjud bo‘lishi, fazilat, xislat va tarbiyaning mustahkamligi, nafosat, go‘zallik va ulug‘vorlikni his eta bilishi kabilar bilan belgilanishi ta’kidlash lozim. Zero bu sifatlar obod turmushning asosiy axloqiy va estetik asoslarini tashkil qiladi. Shaxsda ushbu axloqiy sifatlarni tarbiyalashda ta’lim va tarbiyaning roli g‘oyat yuksakdir.

Xulosa qilib aytganda xalqimizning boy tarixi, madaniyati va istiqbolli ma’naviyati, qadriyatlari va urf-odatlarini o‘rganish va e’zozlash, yurtimizni yanada obod va go‘zal maskanga aylantirish maqsadida olib borilayotgan ishlar o‘z samarasini bermoqda. Yangi O‘zbekistonda olib borilayotgan barcha islohotlar inson manfaatiga, barkamol, sog‘lom avlodni tarbiyalash va uni ma’naviy-axloqiy jihatdan yetuk va ijtimoiy faol qilib voyaga etkazish, obod turmush tarziga qaratilgani bilan ahamiyatlidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Farobiy. Fozil odamlar shahri. T., Xalq merosi. 1993.
2. Husayin Voiz Koshifiy “Axloqi Muxsiniy”, O‘zbek Milliy ensiklopediyasi; Davlat ilmiy nashriyoti.2011.
3. Сирожиддинов Ш. Ўзбек мумтоз адабиётининг фалсафий сарчашмалари / Монография. –Т.: “Янги аср авлоди”, 2011.
4. Назаров Қ. Фалсафа асослари. -Т.: ЎФМЖ, 2012.

² Husayin Voiz Koshifiy “Axloqi Muxsiniy”, O‘zbek Milliy ensiklopediyasi; Davlat ilmiy nashriyoti; -2011yil 277 bet.

5. Мирзиёев Ш.М. Нияти улуғ халқнинг иши ҳам улуғ, ҳаёти ёруғ ва келажаги фаровон бўлади. 3-жилд. – Тошкент: Ўзбекистон, 2019.
6. Низомиддинов Н.Ғ. “Жануби-Шарқий Осиё диний-фалсафий таълимотлари ва ислом”. –Т.: “Zar qalam”, 2006.
7. Kuvanovich, R. K. (2023). ATTENTION TO EDUCATION IN THE CHISHTIYA SECRET. Research Focus, 2(2), 111-114.
8. Quvanovich, R. Q. (2021). The Moral Importance of Humanity and Patriotism in Chistiya and Kubraviya. International Journal on Orange Technologies, 3(3), 98-103.
9. РАЗЗОҚОВ, Қ. ЭКОНОМИКА И СОЦИУМ. ЭКОНОМИКА, (9), 542-545.